

IMLO QOIDALARIDAN SABOQLAR

Gulbahor Xatamova Maxammadaaminovna
Naangan davlat universiteti akademik litseyi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning mazmun-mohiyatlaridan yana biri yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantirish, ularni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish, ijodiy imkoniyatlarini kashf qilish va uni rivojlantirishdan iboratdir. Shu o'rinda mustaqil, ongli, savodli matn yaratish hodisasi ham inson tafakkuri mahsuli, uning o'zgaralar ongiga ta'sir etish vositalaridan biri hisoblanadi. Agar o'quvchining so'z boyligi nochor, lug'at xazinasiga qashshoq, savodxonligi past bo'lsa, ijodiy matn yaratish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchini savodxon qilish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, nutq jarayonida so'z va iboralarni to'g'ri tanlash, uni nutqiy vaziyat taqozosiga ko'ra o'rinli ishlatish ko'nikmalarini singdirish iborat.

Kalit so'zlar: imlo qoidalar, harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish.

Ilm bir xazina bo'lsa, bu xazinaning kaliti savoddur.
(Shavqiy Kattaqo'rg'oniy)

KIRISH

Ma'lumki, zamonaviy mutaxassis o'z sohasining mohir ustasi bo'lishi bilan birga nutq savodxonligi va madaniyatini, xususan, yozma nutq ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Har bir kishi fikri va tuyg'ularini og'zaki ravon ifodalash barobarida to'g'ri va mantiqli yozishni ham uddalay olsagina xalq e'tiboriga tushadi. Yozish amali xatolarni bevosita ko'rish, tuzatish, boyitish imkoniyatini beradi hamda bu jarayonda fikr charxlanadi, ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu maqsadda ona tilidan berilgan materiallar o'quvchi nutqini o'stirish, nutq maqsadi va sharoitiga mos ravishda mustaqil fikrlay olishga, so'z ustida ishlay bilish, xususan, tanlagan kasbga oid ijodiy matn yaratishga, ilmiy va badiiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qilgan. Bu qaror 7 bo'lim 82 banddan iborat.

I. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi(1-7)

b) undoshlar imlosi(8-32)

II. Asos va qo'shimchalar imlosi(33-37)

III. Qo'shib yozish imlosi(38-50)

IV. Chiziqcha bilan yozish (51-56)

V.Ajratib yozish imlosi (57-65)

VI. Bosh harflar imlosi(66-74)

VII. Ko'chirish qo'idalari(75-82)

Har bir o'zbek millatiga mansub fuqaro bu imlo me'yorlarini mukammal bilishi, uni yozma nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Zero, savodxonlik va o'zbek tilining rivojlanishi mushtarak tushunchalar bo'lib, har bir millatning madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi bilim va malakalarni baholash agentligi hamda Davlat test markazi tomonidan taqdim etilayotgan materiallarda ham "Imlo qoidalariga" oid test savollari mustahkam o'rin olgan.

Shu maqsadda biz ham "Imlo qoidalariga" oid ayrim test savollariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

1.Berilgan so'zlarning nechitasi imlo qoidasiga mos yozilgan?

1) 9-may; 2) XX-bob; 3) uyma uy; 4) yildan–yilga; 5) bolamey; 6) 31-Avgust; 7) ertayu kech; 8) topayapman. A) 1 ta B) 2ta C) 3 ta D) 4ta

Test savollarini tahlil qilamiz:

- Birinchi so'z to'g'ri yozilgan, lekin 6-so'z xato yozilgan, chunki tarixiy sana va bayram nomlarida tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi. Masalan, 9-may; 1-sentabr; Sakkizinchi mart kabi.

- Ikkinchi so'z xato yozilgan, sababi tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -inchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha qo'yiladi, lekin tartib sonni ko'rsaruvchi rim raqamlaridan so'ng chiziqcha qo'yilmaydi.

- Uchinchi so'z xato yozilgan, chunki so'zning –ma va –ba yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi.Masalan, ko'chama- ko'cha, uyma-uy kabi.

- To'rtinchi so'z ham xato yozilgan, chunki birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi: yildan yilga, tomdan tomga kabi.

- Beshinchi so'z ham xato yozilgan, chunki "Imlo qoidalariga"ning "Chiziqcha bilan yozish" bo'limida ey, yey kabi undov so'zlar undalmalardan keyin kelsa chiziqcha bilan yozilishi aytib o'tilgan.

- Yettinchi so'z xato yozilgan, sababi juft so'z qismlari orasida -u(-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi.

- Topayapman soʻzi xato yozilgan, chunki **-yap hozirgi zamon shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qoʻshilib, -ayap holida talaffuz qilinsa ham, -yap yoziladi. Topyapman shaklida.**

Demak toʻgʻri javob: A) 1ta

2.Imlo qoidasiga koʻra toʻgʻri yozilgan soʻzlarni belgilang.

1) nomoyish; 2) namoyon; 3) tomosha; 4) madomiki; 5) muhokama; 6) fuqoro

A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 3, 4, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4

Soʻzlarni imlo qoidalariga muvofiq yozib chiqamiz;

Namoyish, namoyon, modomiki, muhokama, fuqaro. Demak toʻgʻri javob: C

3.1995 –yilda qabul qilingan imlo qoidalariga koʻra quyidagi soʻzlarning qaysilari ajratib yoziladi?

A) kelintushdi, tokqaychi B) soʻzboshi, achchiqtosh

C) qirgʻiykoʻz oybolta D) dardibedavo, timqora

Test tahliliga oʻtamiz:

A) variantga toʻxtalamiz: Marosim va afsona nomlarini bildiruvchi soʻzlar qoʻshib yoziladi: kelintushdi, kiriyuvdi, Urtoʻqmoq kabi; tokqaychi soʻzi narsaning biror ish uchun moʻljallanganini bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi qoidasiga muvofiq qoʻshib yozilgan.

B) Qaratuvchili birikmaning bir soʻzga aylanishi bilan yuzaga kelgan qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: olmaqqoqi, soʻzboshi, mingboshi kabi. Shuningdek, narsani uning rangi, mazasi, oʻzidagi biror narsasi va shu kabi belgi asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: achchiqtosh, olaqargʻa kabi

C) Narsani boshqa narsaga nisbatlash, oʻxshatish yoʻli bilan bildiruvchi qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: oybolta, qirgʻiykoʻz kabi

D) Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan soʻzlarga i shaklida, unli bilan tugagan soʻzlarga yi shaklida qoʻshiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar;

Sifat oldidan kelib, belgini ortiq va kamligini bildiruvchi toʻq, jiqqa, tim, lang, och kabi soʻzlar ajratib yoziladi: tim qora, jiqqa hoʻl, och sariq

Demak, toʻgʻri javob: D

4. Quyidagi qaysi soʻzlarda nuqtalar oʻrniga sirgʻaluvchi jarangsiz lab undoshi yoziladi?

1) a..zal; 2) a..tomobil; 3) sha..qat; 4) sa..do; 5) a..gʻon; 6) mu..affaqiyat

A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 5, 6 C) 1, 2, 3, 5 D) 4, 5

Test tahliliga oʻtamiz: Avvalo, sirgʻaluvchi jarangsiz lab undoshini aniqlab olamiz:

Bizga maʼlumki, bu tovush “f”. Endi soʻzlarining toʻgʻri yozilishini qayd etamiz:

Afzal, avtomobil, shafqat, savdo, afgʻon, muvaffaqiyat. Demak toʻgʻri javob: A

5. Berilgan gapda necha o'rinda imlo va tinish belgisi bilan bog'liq xatolar mavjud?

Bir odati bor jahli chiqqanda kattaga ham, kichikka ham, xullas- hammaga ayamay zaxrini sohadida keyin afsuslanib o'tiradi.

A) 3 o'rinda imlo, 3 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato

B) 5 o'rinda imlo, 2 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato

C) 4 o'rinda imlo, 3 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato

D) 3 o'rinda imlo, 5 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato.

Test tahliliga o'tamiz:

Gapdagi chiqqanda so'zi xato yozilgan, sababi k va q undoshi bilan tugagan so'zlarga -ga

-gach, -guncha, -gani qo'shimchalari -kach yoki -qach, -kach yok -qach, -kani yoki -qani tarzida qo'shiladi. Shu sababli chiq fe'liga sifatdoshnnig o'tgan zamon shakli -gan emas,

-qan qo'shilishi kerak edi. Ikkinchi imloviy xato: Zaxrini so'zi zahrini tarzida yozilishi kerak. Uchinchi imlo xato: sohadida so'zida -da yuklamasi chiziqcha bilan yoziladi, yani sohadi-da tarzida.

Shuningdek, Bir odati bor gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi, chunki qo'shma gaplar orasida izohlash munosabati bor. Bu gapda xullas kiritma, hamma umumlashstiruvchi so'z bo'lib, xullasdan oldin tire, keyin vergul qo'yiladi. Demak, gapda uch o'rinda tinish belgi bilan bog'liq xato bor.

Endi gapni yozamiz: Bir odati bor: jahli chiqqanda kattaga ham, kichikka ham -xullas, hammaga ayamay zahrini sohadi-da, keyin afsuslanib o'tiradi. To'g'ri javob: A

Xullas, o'zbek tili imlo qoidalari o'zbek tilida to'g'ri va tushunarli yozish, ifodaning aniq va tartibli bo'lishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Imlo qoidalari harflarni to'g'ri ishlatish, so'zlarni birikmalar shaklida yozish, qo'shimcha va o'zaklarning to'g'ri qo'llanishi, katta va kichik harf ishlatish, tirnoq, vergul, nuqta kabi tinish belgilaridan foydalanishni belgilab beradi. Masalan, "o'" va "g'" harflari maxsus belgilar sifatida alohida yoziladi, arabcha yoki ruscha kelib chiqqan so'zlar esa o'zbekcha talaffuzga moslashtirib yoziladi. Bundan tashqari, ot, fe'l, sifat va boshqa so'z turkumlariga oid qo'shimchalarning to'g'ri qo'llanishi ham imlo qoidalarida belgilangan. Imlo qoidalarini bilish nafaqat yozma nutqda, balki og'zaki nutqning ravonligi va tushunarligini ham ta'minlaydi. Shu bois maktabdan boshlab o'quvchilarga imlo va tinish belgilarini o'rgatish katta ahamiyatga ega. So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.Nurmonov, A.Sobirov. Hozirgi o'zbek adabiy tili (1-bosqichlar uchun darslik). Andijon: Ilm ziyo. 2010
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov. Ona tili (6-sinf uchun darslik) Andijon. Tasvir . 2006
3. A.Hojiyev. O'zbek tilining imlo lug'ati. 2010.
4. DTM test materiallari.